

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY nomidagi

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKUL'TETI

O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN

Mavzu: Chorizm istibdodiga qarshi Turkiston halqlarining milliy ozodlik kurashlari. Jadidchilik.

REFERAT

Bajardi:

Mansurova F

Tekshirdi :

Soipov U.Z

Samarqand- 2014

REJA:

I.Kirsh.

- 1.Chor Rassiyasining Turkiston halqlariga nisbatan yurgizagn mustamlakachilik siyosati.
- 2.Turkiston halqlarining Chor Rassiyasiga qarshi ozodlik xarakatlari.
- 3.XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishi.

III.Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Osiyo tarixida XIX-asrga kelib mustamlakaga aylantirish juda rivojlangan edi shu jumladan Turkistonda ham mustamlakachilik siyosati olib borilayotgan edi. Bugungi kunda Rassiyani Turkistonda olib borgan ishlari va xalqning bunga bo'lgan munosbati xonliklardagi bo'lib o'tgan voqyalarni o'rganamiz.

Bu mavzuni o'rganishdan maqsad o'sha davrdagi axvol Chor Rassiyasining Turkistonga qilgan tajavuskorona xarakati, halqning ishtimoiy-iqtisodiy ahvoli xonliklarda bo'layotgan voqealar, halq qo'zg'olonlar va jadidchilik xarakatining yuzaga kelishi va ularni olib borgan siyosati to'g'risidagi malumotlarni o'rganamiz.

Xozirgi kunda bu davr to'g'risida ko'plab ilmiy ishlar olib borilmoqda bundan maqsad Turkistonni bosib boinishi xaqidagi aniq malumotlarga ega bo'lish va ish faoliyatimiz davomida o'quvchilarga to'g'ri malumotlar yetkazish uchun zarur.

O'sha davrda Chor Rassiyasining O'rta Osiyoga qiziqishi yanada ortadi chunki dunyoda bo'lib turgan voqyalar bunga misol bo'la oladi, rivojlangan davlatlarning o'z mustamlakalarini ko'paytirishi va xom ashyo bozasiga aylantirishi boshlangan edi. Rassiyaning maxsulotlari jaxon talayualriga javob bermay qolgan edi shuning uchun Rossiya O'rta Osiyoni bosib olib o'z tavarlarini o'tkazish va xom ashyo yuozasiga aylantirish maqsadida O'rat Osiyoga yurish uyushtiradi va maqsadiga yetadi, keyinchalik bizning yurtdoshlarimiz mustamlakachilarga qarshi ko'plab qo'zg'olonlar norozilik namoishlari olib boradilar chunki ularni olib borgan siyosati xalqning axvolini og'irlashtirib yuborgan edi.

Keyinchalik maydoga jadidchilar chiqq boshlaydilar ular xalq manfaatlarini ximoya qilib ularga yordam berib xalqning savodini oshirish ularni ilimli qilish va ozodlik uchun kurashishga chorlaydilar bunday shaxislardan biri jadidchilar xarakati boshlig'i Ismoilbek Gaspirinskiy, Munavar Qori, Behbudiy va shunga o'xshash ko'pla yurtdoshlarimiz xalqqa bosh bo'lib ularga yo'l boshchi bo'ladilar. Bu davr xalqimiz xayotida qora kunlar deb yuritiladi, chunki bu davrda ko'pgina yurtdoshlarimiz xalq dushman deb va boshqa sabablarga ko'ra otib tashlangan bu

esa ko'plab shoirlarimizni, olimlarimizni va ziyolilarni kamayib ketishiga sabab bo'ldi.

1.Chor Rassiyasining Turkiston halqlariga nisbatan yurgizagn mustamlakachilik siyosati.

Chor Rossiyasining Turkiston xalklariga nisbatan yurgizgan mustamlakachilik, ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati albatta qonuniy suratda maxalliy axolining o'z milliy ozodligi, erki va insoniy xaq-xuquqlarini ximoya qilish uchun muqaddas jangga otlantirdi.

Taniqli tarixchi olim Shodi Karimovning «Qafasdagi qush orzusi» nomli risolasida ta'kidlanganidek «Kafasdagi kushning muddaosi bitta - u xam bo'lsa ozodlik, xurlik, erkinlik, qafasni tark etishdir». Darxaqiqat, shu boisdan xam chorizm tomonidan asoratga solingan, mustamlaka kilingan Markaziy Osiyo xalqlari dastlabki kunlardanoq o'z milliy mustaqilliklari, ozodliklari va erklari uchun muqaddas kurashni boshlab yubordilar.

Bu milliy xarakatini taxminiy uch boskichga bo'lib taxlil etish maksadga muvofiqdir.

- 1-bosqich, XIX asrning 70 yillaridagi xalq xarakatlari;
- 2-bosqich, XIX asrning 80-90 yillarida Turkistonda xalq xarakatlari;
- 3-bosqich, 1916 yilgi xalq ko'zg'oloni.

Birinchi bosqichdagi milliy ozodlik xarakati asosan Farg'ona vodiysida sodir bo'lgan xalq xarakatlari bilan bog'liqdir.

Ma'lumki 1868 yilda Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman Qo'qon xonligidan tortib olingan yerlarning Rossiya tarkibiga kiritilganligini rasmiy qonunlashtirish uchun Qo'qon xoni bilan shartnomani to'zgan edi. Bu shartnoma Qo'qon xonligini og'ir va noqulay axvolga solib qo'ydi. Xonlik tashki olamdan o'zib tashlandi. Xonlik chegarasi ancha qisqarib, xazinaga tushadigan daromad kamaydi. Uning o'rnini to'ldirish uchun turli soliq va majburiyatlar joriy etildi. Bir butun Farg'ona vodiysida ikki xil tartib-qoidalar mavjud edi.

Xonlikdan tartib olinib, tashkil qilingan viloyat, uyezd va volostlarda bosqinchilarning tamomila mustamlakachilik konunlari amal kildi. Bu konun va

tartiblar maxalliy axolining asriy shakllangan tarixiy turmush tarzi, urf-odatlar va an'analariga mutlako zid edi. Bundan tashqari mustamlaka xoqimiyati maxalliy xalqqa solinadigan soliq miqdorini xaddan tashqari oshirib yubordi. Bularning xammasi xalq noroziligining alanga olishiga asosiy sabab bo'ldi.

Mustamlakachilik siyosati va zulmiga qarshi Turkiston o'lkasidagi XIX asrning 70-yillaridagi xalq xarakatlari orasida 1873-1876 yillarda Farg'ona vodiysida bo'lib o'tgan qo'zgolon aloxida o'rin egallaydi.

Qo'zg'olonning asosiy xarakatlantiruvchi kuchi bo'lib dexkonlar, xunarmandlar va mayda savdogarlar maydonga chiqdilar. Bu qo'zg'olon mustamlakachilik va jabr-zulmatga qarshi kutarilgan xalq xarakati edi. Bu qudratli to'lqin gox susayib, gox kuchayib, 1873 yildan to 1877 yilgacha davom etdi. Shu jarayonda xalq orasidan sarkardalar, qo'zg'olon yo'lboshchilari yetishib chiqdi. Ular xalqqa bosh bo'lib, so'nggi nafasigacha dushmanga qarshi kurashdilar.

Ana shundaylardan biri, xalq orasida Po'latxon nomi bilan mashxur bo'lgan Mullo Isxoq Mullo Xasan o'g'lidir. Dastlab qo'zg'olon kirgiz axolisi orasida boshlandi. Jalolobod va Xonobod kishloqlarida xonning solik yigiuvchilari uldirildi. Undan keyin Ush kirgizlari kutarildilar. Qo'zg'olon alangasi bora-bora kuchayib, turli qishloq va ovullarni qamrab ola boshladi. Chotkoldan Olabuka darasi orqali Kosonga xujum uyushtirilgan qo'zg'olonchilarning soni un mingga yakinlashib koldi. Ularga qarshi xon ko'shin yubordi va xon qo'shinlari bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida bo'lgan bir qator tqo'nashuvlarda, qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchradilar. Shu tariqa, 1873 yilning baxorida boshlangan qzzg'olon ko'zga kelib vaqtincha to'xtadi. Po'latxon yangi xujum uchun kuch tuplagani Chotkol tog'lariga chekindi.

1874 yilning baxorida yana g'alayonlar boshlandi. Qo'qon xonligining turli viloyatlarida ommaning chikishlari va ayrim tuknashuvlari davom etdi.

1875 yilning baxorida kayta boshlangan qo'zg'olon kutilmaganda o'z yunalishini o'zgartiradi. Bunga sabab, bu qo'zg'alonga boy-zodagonlar, musulmon ruxoniylarining peshvolari xam faol ishtiroq eta boshlaydi. Ularning asosiy maksadi xoqimiyatni kulga olish edi. Xayoti xavf ostida kolgan Qo'qon xoni

Xudoyorxon chor xukumati ximoyasi ostiga kochadi. Xudoyorxonning ugli Nasriddinbek Qo'qon xoni deb e'lon kilinadi.

Nasriddinbek esa qo'zg'alonni tinchitish va o'z xoqimiyatini mustaxkamlash maksadida, chor xoqimiyati Kaufman nomiga xat bilan murojaat kiladi. 1875 yil 25-sentyabrda u qo'zg'alonchilardan yashirincha Kaufman bilan shartnoma to'zadi, unga kura u o'zini Rossiyaga tobe deb tan oladi, katta tovon tulashga va'da beradi va xonlikning bir kismini Rossiyaga kushilishiga rozilik bildiradi. Bu esa qo'zg'alon kutargan xalkning gazabini ut oldiradi va ular o'z kurollarini Nasriddinbek va uning tevaragidagi boy-zodagonlarga qarshi karatadilar. Qo'zg'alonchilar Qo'qonni, Margilonni va kupgina kishloqlarni egallaydilar. Ular xamma joyda o'zlari yomon kurgan xoqimlardan kasos oladilar va ularning urniga o'zlarining odamlarini kuyadilar. Qo'zg'alon shunchalik keng tus oladiki, xatto Turkiston general-gubernatori Kaufman yordam surab Aleksandr II ga murojaat kilishga majbur buladi. 1876 yil 12-fevralda podsho farmoniga binoan Qo'qon xonligi tugatilib, uning urnida Farg'ona viloyati tashkil etiladi va u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritiladi.

Qo'qon xonligi tugatilib Farg'ona viloyati ta'sis etilishiga karamasdan ozodlik kurashi mutlako tuxtab kolmadi. Turli millatga mansub maxalliy axolining vatanparvar uglonlari erk, ozodlik uchun kurashni davom ettirdilar. Bu gal ozodlik xarakati kurash bayrogi Farg'onadan Oloyga kuchirildi.

Turkiy xalklarning jasur malikasi, kirgiz ayoli Kurbonjon dodxox o'z ugillari bilan kaxrli general Skobelev kushiniga qarshi kurashish uchun kuch tuplay boshladi.

Utmishdan ma'lumki, zabardast va goyat gururli sarkardalar, xotin-kizlar bilan jang kilishni erkaklik sha'niga isnod keltiradi deb xisoblashgan. Masalan, Iskandar Zulkarnayn Turon zaminida xotin-kizlar boshchiligidagi jangovor kislarni kurib, ular bilan jang kilishdan bosh tortdi. General Skobelev esa moziy sarkardalarining donish udumiga zid borib, uning ma'naviy-ruxiy tomonlarini uylab xam kurmadi. Uning ayol kumondon Kurbonjon dodxoxga qarshi otlanishi bilan o'z obru-e'tibori goyat yerga urilishiga farosati xam yetmadi. Ma'naviy-

axloqiy sifatlardan maxrum bulgan insonlarning konini oqizishni kasbga aylantirgan general uchun insoniylik goyasi axamiyatsiz edi. Unga maxalliy xalklarning koni bilan sugorilgan tuproqda mustamlakachilik bayrogi xilpirab tursa bas. Uning shovinizm ruxida shakllangan dunyoni tushunish falsafasi ana shu tarzda kamol topgan edi. Bu buyuk rus davlatchilik shovinizmining maxsuli edi.

Lekin, Kurbonjon dodxox va uni kullab-kuvvatlagan vatanparvarlar ming bir imkoniyatdan foydalanib, ogir va mashakkatli kurashni olib boraverdilar. Ular general Skobelevga mustamlakachilar xech kachon o'z va'dalarini, o'zlari nizomlagan bitim va kelishuvlarni xalol bajarmaganligini, shunga kura kurash olib borishga majbur ekanliklarini bildirdilar.

Xatto 1876 yil 31-iyul kuni maxalliy uruglarning bir kator vakillari Skobelev xo'zuriga kelib taslim bulishganini bildirishganda xam Kurbonjon dodxox, o'z ugillari bilan kurashni davom ettirdilar. General Skobelev tinchlik shartnomasi to'zish uchun mayor Ionovni ayol sarkarda xo'zuriga yubordi. Ammo Kurbonjon dodxox mavkei o'zi bilan teng kumondon bilan sulx to'zishi mumkinligini aytdi. Oxir-oqibatda general Skobelev Kurbonjon dodxox bilan uchrashib, mo'zoqara olib borishga majbur buldi va u kuygan talablarga rozi buldi. Bu Kurbonjon dodxoxning Skobelev ustidan ma'naviy-ruxiy galabasi bulib tarixga kirdi.

Rossiya mustamlakachilariga qarshi olib borilgan milliy-ozodlik kurashining ikkinchi, XIX asrning 80-90 yillarini o'z ichiga olgan boskichida sodir bulgan yirik xarakatlardan biri bu 1892 yili Turkiston general-gubernatorligining markazi bulmish Toshkent shaxrida bulib utgan qo'zg'alondir. Turkiston xalklari tarixida «vabo qo'zg'aloni» nomi bilan mashxur bulgan bu qo'zg'alon rus mustamlakachilarining maxalliy xalkning milliy va diniy kadriyatlari bilan mutlako xisoblashishmaganligi, milliy va diniy gururning yerga urilishini istamagan maxalliy xalkning kelgindilarga qarshi mardonavor kurashga otlanganliklarining yorkin timsolidir.

1892 yil iyun oyi boshida Toshkentda vabo bilan kasallanganlar aniklandi. Shaxar ma'muriyati bu kasallikka qarshi bir kancha shoshilinch tadbirlarni amalga oshirishga kirishadi. Shunday tadbirlardan, masalan, vabo kasalligidan olamdan

utganlarni milliy va diniy udumlarga kura kabristonga kumishni ta'kiklash, ulganlarni tibbiy muassasa xodimlari topshirgandan keyingina aloxida vabo mozorlariga majburiy kumish va x.k. Umuman vaboning oldini olish maksadida kurilgan tadbirlarning asosiy kismi maxalliy axolining diniy va milliy urf-odatlariga qattiq tekkan edi.

Undan tashkari, vabo kasali bilan ogrigan maxalliy axoliga tibbiy yordam kursatish va davolashlar ruslarga nisbatan bulgan munosabatda xam adolatsizlikka yul kuyilgan edi.

Masalan, ma'lumotlarga karaganda, shaxarning ruslar yashaydigan kismida 417 kishi, maxalliy axoli yashaydigan kismida vabo kasali bilan 1467 kishi kasallangan. Shulardan, yevropaliklardan 200 nafari sogaygan (50 foizi) bulsa, maxalliy axolidan fakat 22 kishi (ya'ni, 1-1,5 foizi) sogaygan xolos. Bu rakamlardan rus ma'muriyatining vabo bilan kasallangan maxalliy axoli vakillariga nisbatan kanday munosabatda bulganliklarini kurib olish mumkin. Bundan tashkari, chor xukumatining shaxarda yashayotgan ruslarga nisbatan maxalliy axoliga past nazar bilan karaganini xam sezmaslik mumkin emas.

1892 yil 22 iyunda shaxarning Shayxontoxur daxasida yigilgan maxalliy axoli ulganlarni eski, o'z mozoriga kumishga ruxsat berilishini surab shaxar boshlig'i nomiga iltimosnoma bilan murojaat kilishdi. Iltimosnomada marxum ayollarni vrachlar tomonidan tekshirilishi va ayniksa, kumish marosimlarining bo'zilishi shariatga tugri kelmasligi va boshka fikrlar bildirilgan edi. Biroq, bu iltimosnomaga xech kim kuloq solmadi va u bajarilmadi. Sabr kosasi tulgan eski shaxarlik o'zbeklar 24 iyunda bosh kutardi.

Kurolsiz 500 kishidan ortik xalk ko'zgollonchilariga qarshi xarbiy gubernator tomonidan otlik kazak otryadlari yuboriladi. Qo'zg'alongchilarning yuzga yakini suvga chuktiriladi. Kochganlar ayovsiz kiriladi. Tarixga «Toshotar voqyeasi» deb kirgan bu qo'zg'alon oqibatida galayon katnashchilaridan 8 kishi ulim jazosiga, 3 kishi qamoqqa xukm kilinadi.

Rus mustamlakachilari qo'zg'alongchilarni jazolashda o'zlariga yokmagan maxalliy ziyolilarni, xalkni o'z orkasidan yetaklashga kodir bulgan ma'rifatparvar

va millatparvarlarni xam katagon kildi. Mustamlakachilar musulmonlarni taxkirlab, ularni xar bir rus amaldorlariga ta'zim bajo keltirishlari majburligi tugrisida buyruk e'lon kilishdi. Xatto kim kuchada ruslarga bukilib salom bermaydigan bulsa, uni urib kamaydigan odat xam chikarishdi.

2.Turkiston halqlarining Chor Rassiyasiga qarshi ozodlik xarakatlari.

Turkiston xalklarining chor mustamlakachilariga qarshi milliy ozodlik xarakatining ikkinchi boskichidagi yirik qo'zg'alonlardan yana biri 1898 yilda Andijonda bulib utgan qo'zg'alondir. Farg'ona vodiysi Turkistonning asosiy paxta yetishtiruvchi maydoni bulganligi uchun va paxtadan keladigan foyda rus amaldorlari bilan maxalliy boylarning kulida bulganligi uchun oddiy xalk ommasi nixoyat darajada qashshoqlasha boshlagan edi. Bundan tashkari, yangi xujayinlar soliklarning mikdorini bir necha bor oshirdilar va yangi-yangi solik turlarini uylab chikardilar. Xatto shunday voqyealar bulgandiki, ayrim kishloqlarning axolisi daryo suvi 10-15 yil oldin yuvib ketgan yerlar uchun xam yer soligi tulashga majbur kilgan edilar. Xurlangan xalkning kaxr-gazabi yigilib asta-sekin qo'zg'alonga aylana boshladi. Bu qo'zg'alonga eshon Muxammad Ali Sobir Sufiyev raxbarlik kildi. Uning otasi Muxammad Sobir xunarmand bulib, duk yasardi. Madali eshon juda ukimishli, dunyokarashi chukur, o'z davrining yetuk kishisi va shuningdek, u Makkaga xajga xam borib kelgan edi. U Mingtepa kishlogi yakinida tuproqli yul yokasida bir necha kayrogochlar ekib, o'zoqdan yelkasiga suv tashib kelib sugordi va yulovchilarning xojatini chikardi.

Asta-sekin Madali eshon xakidagi gaplar atrof kishloqlarga yoyildi. Qo'zg'alonchilarning asosiy maksadi, rus boskinchilarini batamom xaydab chikarib, mustakillikka erishish va xalkni ikki yoklama zulmdan xolos kilish edi.

Qo'zg'alonchilar Turkistonda chorizmning asosiy tayanchi va xalkni kullikda ushlab turgan kuchlar armiya ekanligini yaxshi bilardilar. Shuning uchun Andijon shaxridagi oq podsho askarlari yashaydigan gornizonga xujum kilishga karor kilindi. Kilich, xanjar, uroq va tayoklar bilan kurollangan qo'zg'alonchilar tunda xujum boshladilar. Oldinlari bulganidek, dastlab qo'zg'alonchilarga yon bosgan katta yer egalari Ushda, Margilonda va boshka shaxarlarda kutarilishi kerak bulgan

qo'zg'alonlarning rejasini bo'zib, xoinlik kildilar. Bu qo'zg'alon tugrisida yozgan Terentyevning gapiga kura, qo'zg'alonchilarning maksadi «Oqshom maxali bir paytda Margilon, Ush va Andijondagi askarlarning lagerlariga xujum kilib, bu shaxarlarni egallash va sungra Namanganni egallab Qo'qon xonligini tiklash, keyin esa Toshkent va Samarkandni xam egallab, ulkadan ruslarni kuvib chikarish edi».

Uroq va tayok bilan kurollangan qo'zg'alonchilar mashk kurgan va yaxshi kurollangan chor armiyasiga bas kelolmadi. Qo'zg'alon nixoyat darajada vaxshiylik bilan bostirildi. Qo'zg'alon bostirilgach, uning 546 faol katnashchilari ustidan sud buldi. Sudda, chor ma'murlari qo'zg'alon boshlig'i Madali eshondan: «Nega xalkni qo'zg'alonga kutarding?» deb suraganlarida u, Rossiya Turkistonni bosib oliganidan sung bu yerda axloqsizlik, foxishabozlik, xar xil uyinlar, aroqxurlik keng avj olib ketganligi, umuman shariat koidalari oyok osti kilinganligi, bunday axloqsizlik paytida Makkaga xajga borishni ta'kiklanishi, xalk urtasida ma'naviy tushkunlikni yanada avj olib ketishiga sabab bulganligi, Ozod Turkistonning ozodligi yuk kilinganligi kabi sabablar uni xalkni qo'zg'alonga kutarishga olib kelganligini aytdi. Madali eshon va uning izdoshlari ustidan sud 1898 yil 11 iyunda Andijon shaxrida bulib utdi va xukm zudlik bilan ijro etildi. Xatto rus tarixchilarining guvoxlik berishlaricha 12 iyunda dor tagida turgan Madali eshon va uning yordamchilari yovlarning ko'ziga shunchalik sovukkonlik bilan boqib, mardonavor turdilarki, ular bir ogiz xam avf kilishlarini suramay, sirtmoqni buyinlariga soldilar.

Ko'zglonchilarning bir kismi o'zoq Sibirga surgun kilindilar. Qo'zg'alonda katnashgan kishloqlarning axolisi nixoyat darajada qattiq jazoladilar. Qo'zg'alonchilar Andijon tomonga kaysi kishloqlar orkali utgan bulsalar, shu kishloqlardan to Andijongacha bulgan masofadagi uylar I kilometr enlikda yer bilan tep-tekis kilindi. Tekislangan yerga esa janubiy rus guberniyalaridan kuchirib keltirilgan mujiklar joylashtirildi. Mingtepa kishlogining nomi «Pojaluysta» (Marxamat) deb o'zgartirildi.

Farg'ona vodiysida chorizmga qarshi kutarilgan qo'zg'alon shu tarika bostirildi. Lekin Dukchi eshon qo'zg'aloni bostirilgani bilan bepoyon

Turkistonning xali bu yerida, xali u yerida qo'zg'alonlar bulib turdi. Demoqchimizki, qo'zg'alon nom-nishonsiz kolmadi. Bu qo'zg'alon dexkonlarga, shaxar va kishloqlarning mexnatkash ommasiga kurash yulini kursatdi xamda un minglab kishilarning podshoxning mustabid xoqimiyatiga qarshi faol xarakat kilishga chorladi. Kelasi 1899 yilning 20 iyunida Farg'ona vodiysida yangi qo'zg'alon kutarilib, ma'muriy binoga ut kuyildi va polisiya uchastkasiga xujum kilindi. Shunday kilib, Turkiston Rossiya imperiyasining eng isyonkor ulkalaridan biriga aylana bordi.

2. XX asr boshlarida chor Rossiyada siyosiy va iqtisodiy jixatdan kaltis voqyealar sodir buldi. 1900-1903 yillardagi iqtisodiy inkiroz Rossiyaning butun xujaligini kamrab oldi. 1904-1905 yillardagi rus-yapon urushida Rossiyaning maglubiyatga uchrashi mamlakat axvolini yanada keskinlashtirib yubordi.

Bunday xolatning salbiy ta'siri Turkiston ulkasiga xam yetib keldi. Urushda kurilgan talofatning urnini koplash uchun mustamlaka xududlarini ayovsiz talash avjiga chikdi. O'zbek dexkoni va uning oilasi ochlik, qashshoqlik yokasiga kelib koldi.

1905 yil 9 yanvarda Peterburgda sodir bulgan konli yakshanba fojeasi chekka ulka axolisini xam kurashga tortdi. Usha kezlardagi Rossiyadagi inkilobiy xolat Turkistondagi dexkonlarni xam xarakat maydoniga undadi va kishloqda sinfiy kurash avj oldi.

Shunday sinfiy kurash o'zining xakikiy kaxramonlarini, jasur yulboshchilarini yuzaga keltirdi. Xususan, Nomoz Primqulovdek zabardast xalk kurashchilari yetishib chikdiki, ularning nomlarini amaldorlar, podsholik ma'muriyatlari eshitib kolgudek bulsa, daxshatga tushadigan bulib koldilar. Mustamlakachilik ma'muriyati va generallari uchun Nomoz Primqulovning nomini eshitish uta xavfli bulib koldi. Xalk unga «Nomoz botir» deb nom kuydi.

Nomoz Primqulov 1904-1905 yillar davomida Samarkand viloyat kishloqlari, tog va daralarida mustamlakachilar va ularning ittifoqchilari bulgan maxalliy boylar, savdogarlarga qarshi kasoskorona kurash olib bordi. U kasos kilichini birinchi navbatda xalkni talagan va uning izzat-nafsoniyatiga tekkan katta yer

egalari, sudxur va savdogarlarga karatdi, ularning mol-mulkini kambagal dexkonlarga bulib berdi. Mustamlakachilarga nisbatan cheksiz nafratga tulib-toshgan Nomoz ularga shafkat kilmadi.

Turkiston general-gubernatori «O'zbek Dubrovskiy» bulmish Nomoz Primqulovni tutib olish va jazolash yuzasidan maxsus tadbir-chora ishlab chikish va uni amalga oshirish yuzasidan farmoyish chikardi. Bu operasiani bajarish uchun shaxsan Samarkand viloyat xarbiy gubernatori yordamchisi polkovnik Susanin javobgar kilib tayinlanadi. Operasiya muvaffakiyatini ta'minlash ishiga Buxoro Amiri Said Abdulaxatxon xam jalb etiladi. 1907 yil may oyida gubernatorlikning katta kushini bilan bulgan tengsiz jangda nomozchilar katta talofat kuradilar va Nomoz xiyonatkorona uldiriladi.

Nomozning ulimi dexkonlarning mavjud tartiblar va mustabid mustamlakachi to'zumba qarshi kurashini tuxtata olmadi va kurashni davom etdi.

2. Ma'lumki, 1914 yilda birinchi jaxon urushi boshlandi. Iqtisodiy va siyosiy jixatdan bakuvvat bulmagan Rossiya imperiyasining bu urushga kushilishi shusiz xam ogir bulib turgan axvolni yanada ogirlashtirib yubordi. Bu ogirlik Rossiyaning mustamlakalarida ayniksa qattiq akssado berdi. Chor amaldorlari kursatmalaridan sung Turkistondagi barcha xosildor yerlarga paxta ekilib, galla esa Orenburgdan va Shimoliy Kavkazdan tashib kelina boshlandi. 1916 yilga kelib, bu galla xam kelmay koldi. Ochlik boshlanib, ozik-ovkatlarning narxlari bir necha bor oshib ketdi. Savdogarlar esa bu kulfatdan unumli foydalanib kolish yuliga utdilar. Oddiy xalkning kun kurishi nixoyatda ogirlashib ketdi.

Kimmatchilik xalkning sabr kosasini tuldirib yubordi. Imperator Nikolay II ning 1916 yilning 25 iyunida turkistonliklarni mardikorlikka olish xakidagi farmoni xammasidan oshib tushdi. 1886 yilgi kelishuvga binoan turkistonlik yigitlar oq podsho armiyasi safida xizmat kilishdan ozod kilingan edilar. Endi esa oq podsho bu kelishuvni ustalik bilan aylanib utib, turkistonliklarni front orkasidagi ogir ishlarni bajarishga safarbar kilmoqchi buldi. Podshoning farmoniga kura, 19 yoshdan 31 yoshgacha bulgan 200 ming kishi Rossiyaga junatilishi kerak edi. Xalkning kaxr-gazabini bosish uchun podsho amaldorlari xalkni:

«Markdikorga olinganlar fakat uch oygina xizmat kilib kaytadilar va shu davr mobaynida ularning oilalariga yordam kursatiladi». - deb aldadilar.

Zudlik bilan ruyxatlar to'zila boshlandi. Amaldorlar urtasida poraxurlik avj olib ketdi. Boylar o'z bolalarini katta pul evaziga mardikorlikdan olib kola boshladilar. Bunday bedodliklarni ko'zi bilan kurib turgan xalk xurlikka, adolatsizlikka qarshi ko'zgoldi. 1916 yilning 4 iyulida Xujandda, 5 iyulda Margilonda, 11 iyulda Namanganda, Toshkentda xamda Toshkent viloyatida xalk maydonga chikdi. Bundan talvasaga tushgan podsho Nikolay II 18 iyulda Turkiston ulkasida xarbiy xolat e'lon kildi va Turkiston xarbiy oqrugi kushinlari boshlig'iga, xarbiy xolat davrida bosh kumondonlik xuquqini berdi. Turkistonda mardikorlikka qarshi kutarilgan qo'zg'aloni ayniksa Jizzaxda eng yukori nuktaga kutarildi. Jizzax qo'zg'aloni 13 iyulda, ya'ni mardikorlikka olish xakidagi farmon ukib eshittirilganligidan sung boshlandi. Farmondan sung 10 kun muddat ichida junatilgan yigitlar tuplanishi kerak edi.

Ammo, muddat utganligiga karamay xech kim tuplanmadi. Shundan sung Jizzax uyezdining boshlig'i Rukin eski shaxar axolisini machitga yigib: «Men sizlarni ogoxlantirib shuni aytamanki, agarda xukumatga qarshi chikadigan bulsalarining, mol-mulklaringni va o'zlaringni yer bilan tep-tekis kilaman» - deya duk urdi. 18 iyul kuni Jizzaxning eski shaxar axolisi, kullariga duch kelgan narsalarni olib Norxuja Eshon boshchiligida shaxar tomon yul oldilar. Ularga yulda rus amaldori Rukin, bosh oqsoqol Yuldoshev, pristav va tilmochlar peshvoz chikdilar. Xalk ularni uldirdi. Shundan sung bu yerga zudlik bilan yetib kelgan jazo otryadi xalkni ukka tutdi. Qo'zg'aloni katta alangadek gurillab ketdi. Bundan nixoyatda vaximaga tushgan Turkiston general-gubernatori bu yerga kushimcha jazo otryadi yubordi. Otryadga boshlik kilib tayinlangan polkovnik Ivanovga, general-gubernator qo'zg'alonchilarga nisbatan raxm-shafkatsiz bulishni va ularga eng ogir jazolarni kullashni xamda qo'zg'aloni kutargan kishloqlarni yoppasiga yokib yuborishni tayinladi.

Ivanov xam xujayinining buyrugini oshigi bilan bajardi. Qo'zg'aloni kutargan Forish va Zomin kishloqlari ut ichida koldi. Qo'zg'aloni bostirilgandan sung, 100

dan ziyod odam tergov kilindi. General-gubernatorning buyrugi bilan, xar bir uldirilgan rus uchun katta mikdorda xosildor yerlar tovon sifatida maxalliy axolidan tortib olindi. Kulga tushirilgan qo'zg'alonchilarni sud kilish jarayoni juda tezlik bilan olib borildi. Odamlarni «ayblariga» ikror kildirish uchun qattiq kiynadilar. 1916 yilgi qo'zg'alonda katnashgan 377 kishi ulimga maxkum kilindi. Bularning ichida jasur, erksevar, kullikdan kura ulimni afzal kurgan Nazirxuja Abdusalomov, Abduraxmon jevachi, Raxmon Jaynoq Abdurasulov, Mulla Muxammad Raxim, Xudoyberdi Yusupov, Turakul Turabekov, Xaydar Xusainov va Xaydar Yuldoshev kabi yovkur ota-bobolarimiz bor edilar. Bu qo'zg'alon, Rossiya Turkistonni bosib olgandan sung bulib utgan qo'zg'alonlarning eng kattasi va o'zoq davom etgan edi. Uni bostirish uchun chor armiyasi 14 batal'on piyodalar, 42 tup, bir necha ming kazaklarni ishga solishga majbur buldi. Bu qo'zg'alon nafakat rus boskinchilariga, balki ularning malaylari, o'z Vatanini va xalkining manfaatlarini sotib, boskinchilarga itdek xizmat kilayotgan mingboshilarga, oqsoqollarga, yuzboshilarga va boshka maxalliy yaloqxurlarga xam karatilgan edi.

3. XIX asrning XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik xarakati vujudga keldi. «Jadid» so'zi arabcha bulib, «yangi» degan ma'noni bildiradi.

Jadidchilikka birinchi bulib krim-tatar xalki farzandi Ismoilbek Gaspirinskiy (1851-1914) asos solgan. Dastlab bu xarakat ma'rifatchilikdan boshlangan bulib, uning ishtiroqchilari o'z xalklarini ma'rifatli, mustakil va milliy ozod kilish uchun kurashganlar.

Ismoilbek Gaspirinskiy musulmon turkiy olamini jaxon ma'rifati ilmi darajasiga kutarish goyasi bilan faoliyat kursatdi. U Rossiya mustamlakasiga aylantirilgan barcha musulmon xududlar maorifini mutlako islox kilish, ularda dunyoviy fanlarni ukitish masalasini kutarib chikdi. Maktab va madrasalarda diniy ta'limot, arab, fors, rus tillarini urganish bilan bir katorda riyoziyot, kimyo, tibbiyot, xikmat, nujum kabi fanlarini xam ukitish zarurligi goyasini ilgari surdi va o'zi shu goyani amalga oshirishga kirishdi. I.Gaspirinskiy 1884 yilda o'z yurtida jadid maktabiga asos soldi. O'zi dastur to'zib, darslik yozdi. Ana shu darslik

yordamida 40 kun ichida 12 ukuvchining savodini chikardi. Bu usul «usuli savtin» - xarf tovushi usuli ya'ni «usuli jadid» nomi bilan tezda shuxrat kozondi.

Ismoil Gaspirinskiy goyalarining keng tarkalishida o'zi muxarrirlik qilgan «Turkiston» gazetasining roli katta buldi. 1888 yilda u «Raxbari muallimin yoki muallimlarga yuldosh» nomli kitobini nashr etdi. Bu kitobda jadid maktabilarining to'zilishi, dars utish va tashkil kilish mazmuni, jixozlanishi, dars jadvali, ta'tillar, imtixonlar, ja'miki ukitish jarayoni bilan boglik masalalar anik va kizikarli bayon etilgan edi.

Musulmon maktablarini islox kilish yuzasidan ishlab chikilgan loyixani Ismoil Gaspirinskiy 1892 yilda Turkiston-general gubernatori Rozenbaxga yuboradi, lekin Turkiston xukmdori, bu loyixani mutlako rad kiladi. Ijobiy javob ololmagan Ismoil Gaspirinskiy 1893 yilda Turkistonga o'zi keladi.

Ulkaning yirik shaxarlarida bulgan Gaspirinskiy tarakkiyparvar ziyolilar bilan uchrashadi, ularga jadid maktabining mazmun-moxiyati va axamiyatini tushuntirib beradi. Xatto Buxoro amiri Abdulaxad xo'zurida bulib, o'z goyasini kabul kildirishga urinib kuradi, ammo buyuk mutaffakirning maksadini tushunishga amir ojizlik kiladi. Shundan sung Ismoil Gaspirinskiy Samarkand va Toshkent shaxarlarida buladi. Turkiston ulkasining kayerida bulmasin general-gubernatorlik amaldorlari uni dushmanlik ko'zi bilan qarshi oladilar. Chunki, ularning Turkistonda olib borayotgan maorif-ma'rifiy soxadagi siyosati xalkni korongilikda tutib turishga karatilgan edi.

Ismoil Gaspirinskiy 1893 yilda ikkinchi bor Buxoro amiri xo'zurida bulib, undan bitta jadid maktabi ochilishiga ruxsat olishga muvaffak buladi. Bu yagona jadid maktabining uchkunlari butun Turkiston buylab sochilib ketdi. 1898 yilda Qo'qonda Saloxiddin domla ikkinchi jadid maktabiga asos soldi. Usha yili Tukmoqda, 1899 yilda esa, Andijonda Shamsiddin domla, Toshkentda Mannon kori jadid maktabini ochdilar.

1903 yilga kelib Turkiston ulkasida 102 ta boshlangich, 2 ta urta jadid maktablari faoliyat kursatdi.

Buxoroda ochilgan jadid maktabining faoliyati tuxtatib kuyilganidan xabar topgan Ismoil Gaspinskiy 1904 yilda yana Buxoroga kelib amir bilan mo'zoqoralar olib boradi va amirning otasi nomi bilan ataluvchi «Mo'zaffariya» jadid maktabi ochilishiga ruxsat oldi.

XX asr boshlarida Turkiston ulkasida ziyolilarning butun bir vatanparvar, millatparvarlar, ma'rifatparvarlardan iborat jadidlar xarakatining kuplab nomoyondalari tarbiyalanib voyaga yetdi. Ularning boshida Maxmudxuja Bexbudiy, Sadriddin Ayniy, Munavvarkori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Boboovun Salimov va boshka tarakkiyparvar fidoiy insonlar turar edilar.

1998 yilda bir gurux tarixchilar bilan bulgan muloqot chogida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Abduganiyevich Karimovning ma'rifat yulida jonbozlik kursatgan jadidlik xarakati nomoyondalari tugrisida aytgan kuyidagi fikrlarini kayd etishni urinli deb xisoblaymiz:

«XX asr boshidagi ma'rifatchilik xarakati... namoyondalari boylik uchun maydonga chikishdimi?

Maxmudxuja Bexbudiy, Munavvar Kori, Fitrat, Tavallolar maktab ochganlari, xalkni o'z xak-xuQo'qlarini tanishga da'vat etganlari uchun birov maosh tulaganmi? Birov ularga oylik berganmi? Albatti, yuk! Ular ut bilan uynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bila turib, ongli ravishda mana shu yuldan borganlar. Chunki, vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan» Turkiston jadidlari yurt ozodligi uchun o'zlarining kurash dasturlarida asosan uchta muxim vazifani kuydilar: birinchisi - yangi usul maktabilari tarmogini kengaytirish; ikkinchisi - umidli yoshlarni chet ellarga ukishga yuborish; va nixoyat, uchinchisi - turli ma'rifiy jamiyatlar to'zish xamda ziyolilarning kuchli firkasini tashkil etishga karatilgan gazetalar chop etish. Ana shu dasturni amalga oshirish borasida Munavvar Kori Abdurashidxonov, Ubaydullaxuja Asadullaxujayev, Maxmudxuja Bexbudiy, Abdulla Avloniy, Toshpulatbek Norbutabekov, Xamza Xakimzoda

Niyoziy, Abdulxamid Chulpon va Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar jonbozlik kursatdilar.

Jadidchilik xarakatining faol ishtiroqchilaridan biri Munavvar Kori Abdurashidxonov 1909 yilda Toshkentda «Jamiyati xayriya» tashkilotini to'zadi va bu jamiyat o'zbek ziyoli bolalarini chet ellarga borib ukib kelishini tashkil kilish bilan shugullanadi. Jamiyat ishiga Toshkentlik mashxur boylar katta xissa kushdilar.

Rossiyada adliya buyicha ta'lim olib, birinchi oliy ma'lumotli o'zbek advoqati diplomini olgan Ubaydullaxuja Asadullaxujayev o'z yurtiga kaytib o'z xalki ozodligi uchun kurashishga bel bog'ladi. Shu yulda u tashkilot to'zishga kirishadi. Natijada jadidlarning tarkoq guruxlari asta-sekin ma'lum dastur va xarakat yunalishiga ega bulgan Ubaydullaxuja atrofida uyushib, o'zbek ziyolilarining mustakil firkasini to'zishadi. Bu firka «Tarakkiyparvarlar» nomi bilan tarixga kirdi.

Ubaydullaxuja o'z faoliyatini umum-Turkiston ijtimoiy-siyosiy gazetasini tashkil kilishdan boshladi. Bunday gazeta kup urinishlardan sung, 1914 yildan chika boshlagan «Tarakkiyparvarlar» firkasining «Sadoi Turkiston» gazetasi buldi. Bu gazeta ulkada milliy ongni uygotishda, mazlum ommani istiklol uchun mustabid to'zumga qarshi kurashga chorlash bobida katta xizmat kursatdi. Gazeta saxifalarida Turkiston jadidlarining otaxoni Maxmudxuja Bexbudi, ayniksa, faol katnashdi.

Maxmudxuja Bexbudiyning butun ongli xayot yuli chor Rossiyasi mustamlakachilik zulmi sharoitida kechdi. U ona xalkining ogir kismatini mustamlakachi shovinistlarning zuravonlik, kamsituvchilik va taxkirlashdan iborat siyosatini o'z ko'zi bilan kurdi. Xalk, millatning asl farzandi sifatida mustamlakachilikdan kandy yul va usul bilan ozod bulish mumkin, degan jumboqqa javob topishga butun kalbi-vujudi bilan kirishdi.

Maxmudxuja Bexbudi Turkiston ulkasi xalklarining chor Rossiyasi mustamlakachiligi zulmi asoratiga tushganligi, o'z erki, insoniy xuQo'qlaridan batamom maxrum etilib, zanjirband xolda yashayotganligi, kullik va tutkunlikdan

ozod bulish yulini topolmayotganligining asosiy va bosh sababini ma'rifatsizlikdan, nodonlik va savodsizlikdan, deb bildi. Shuning uchun xam xalkning ogirini yengil kilish maksadida yangi usuldagi maktablar ochib, ularda millatning farzandlariga ilm-ma'rifat xadya etishga o'zining asosiy diqqat-e'tiborini karatdi. U fakat maktablar ochish bilan cheklanib kolmadi, balki shu maktablar uchun zamonaviy ruxda yozilgan darsliklar xam yaratdi. Bular orasida «Risolai asbobi savod», «Muntaxabi jugrofiyai umroniy» («Kiskacha umumiy geografiya»), «Madxali jugrofiyai umroniy» («Axoli geografiyasiga kirish»), «Kitob ul atfol» («Bolalar uchun kitob»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning kiskacha tarixi»), «Xisob» kabi kitoblar bor. U maxsus nashriyot tashkil kilib o'zi yozgan darsliklar, kulanmalar va xaritalarni bosib chikargan. Bular yangi usuldagi ilk o'zbek maktablari uchun to'zilgan darslik va kulanmalar sifatidagina emas, balki til-yozuv madaniyatimiz tarakkiyoti nukta nazaridan xam muxim axamiyatga egadir.

Jadidlarning Turkistondagi yirik vakillardan biri Abdurauf Fitratdir. Fitrat adabiyotimiz tarixida yirik olim, shoir, yozuvchi, dramaturg, faylasufgina bulib kolmasdan, ma'rifatparvar adib sifatida yangi usuldagi maktablarni ochish va bu maktablarning moxiyati xamda axamiyatini tushuntirish yuzasidan katta ishlarni olib bordi.

Jadidlarning o'z faoliyatlari davomida kun tartibiga kuygan masalalarni oradan sal kam bir asr utgandan keyin, O'zbekistonning mustakillikka erishgach, amalga oshirila boshlandi. Ta'lim-tarbiya, ilm-fan, texnika soxasida ibratli bulgan Yevropa, Amerika, Turkiya, Yaponiya, boshka Shark va G'arb mamlakatlaridan o'rnak olish, yoshlarni o'sha mamlakatlarga yuborib o'qitish chora-tadbirlari amalga oshirilayotganligi bunga yorqin dalil xisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilibtganda Turkistogning Rossiya tamonidan bosib olinishi va mustamlakachilarning olib borgan siyosati, xonliklardagi axvol, xalq xarakatlari, jadidchilikning yuzaga kelishi va ular olib borgan ishlar xaqda so'z borar ekan, eng birinchi masala Chor Rassiyaisning O'rta Osiyoni bosib olishdan maqsat nima edi

degan savol tug'iladi? Rossiyaning maqsadi shunda ediki Rossiya Yevropa davlatlaridan orqada qolib bormoqda edi shu jumladan uning ishlab chiqargan maxsulotlari chet davlatlar maxsulotlaridan orqada qolayotgan edi, shuning uchun Rossiya o'z maxsulotlarini o'tkazish uchun qulay xudud va xom ashyo bozasi sifatida O'rat Osiyoga xujum uyushtiradi va o'z tasarrufiga qo'shib oladi. Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga solgan tavon pullari bu pullarning xalq tamondan yig'ib olinishi xalqning axvolini og'ir axvolga solib qo'yadi va bunga qarshi xalq qo'zg'alonlari boshlanadi bu qo'zg'alonda asosan dexqonlar, xunarmandlar, mayda savdogarlar qatnashadi, bunga qarshi Rossiya imperiyasi qattiq choralar ko'radi qo'zg'alonchilarni ayamadan qirib tashlaydilar. Xalqning axvolini og'irlashtirgan yana bir narsa ruslarning ko'sirish siyosati xisoblanadi, bunda axolining ishtimoiy axvaoi yana o'n yilga orqada qolib ketadi bunga sabab axolining yangi o'zlashtirilmagan yerlarga o'tkazilishi ular o'rniga ruslarning olib kelib joylashtirilishi bunga sabab bo'ladi. Keyinchalik jadidchilik xarakatining yuzaga kelishi ularning olib borgan siyosati xalqning axvolini yaxshilash ularni ozodlik uchun kurashga chorlash, xalqning savodini chiqarish, yangi usul maktablarini ochish va o'quvchilarni yangi yo'nalish bo'yicha o'qitish ishlari olib boriladi, bu yo'lda ular so'ngi nafachi qolguncha kurash olib boradilar. Mashhur jadidchilardan Ismoilbek Gaspirali, Munavar Qori, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdulla Avloniy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Xamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulxamid Cho'lpon va Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar jonbozlik ko'rsatdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yuk". T., 1998 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston", 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., "O'zbekiston" 1998.
4. X.Ziyoyev. Turkistonda Rossiya tajovo'zi va xukmronligiga qarshi kurash. T., «Shark», 1998.
5. O'zbekiston tarixi (1917- 1993) T., "O'kituvchi", 1994.

6. Usmonov K., Sodikov M va O'zbekiston qaramlik va mustakillik yillarda., T., "O'qituvchi", 1996.
7. O'zbekiston tarixi. (Jurayev N va boshk) T., "Shark", 1998.
8. R.Shamsutddinov Vatan tarixi. T. 2010